XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHI QARORI

141600, Urgut tumani, Navoiy shoh ko'chasi, 104-uy, 66-483-04-42

2023 - yil 13 - oktabr VI-125-155-7-105-K/23 Urgut tuman hokimligi

Urgut tumani hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosi yuzasidan tuman hokimining 2023-yil 3-fevraldagi 16-7-105-F/23-sonli farmoyishi hamda Urgut tumani hududidagi shahar va shaharcha hamda qishloqlar chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo'yicha tuzilgan komissiyaning 2023-yil 19-sentabrdagi 263-sonli bayoniga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi tomonidan Samarqand viloyati Urgut tumanidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko'ra umumiy perimetri 876075 metr, umumiy maydoni 115288,3 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Urgut shahrining umumiy perimetri 29036 metr ekanligi, umumiy maydoni 1604,4 gektar;

"Pochvon" shaharchasining umumiy perimetri 16022 metr ekanligi, umumiy maydoni 458,2 gektar;

"O'ramas" shaharchasining umumiy perimetri 8267 metr ekanligi, umumiy maydoni 185,4 gektar;

"Kenagas" shaharchasining umumiy perimetri 9868 metr ekanligi, umumiy maydoni 221,4 gektar;

"Kamongaron" shaharchasining umumiy perimetri 13713 metr ekanligi, umumiy maydoni 307,0 gektar;

"Jartepa" shaharchasining umumiy perimetri 19710 metr ekanligi, umumiy maydoni 408,0 gektar;

“Ispanza” shaharchasining umumiy perimetri 11167 metr ekanligi, umumiy maydoni 495,8 gektar;

“G‘o‘s” shaharchasining umumiy perimetri 10212 metr ekanligi, umumiy maydoni 363,3 gektar;

“Bahrin” qishlog‘ining umumiy perimetri 38049 metr ekanligi, umumiy maydoni 3694,3 gektar;

“Beshbuloq” qishlog‘ining umumiy perimetri 64716 metr ekanligi, umumiy maydoni 10901,2 gektar;

“Buloqboshi” qishlog‘ining umumiy perimetri 67018 metr ekanligi, umumiy maydoni 15903,2 gektar;

“G‘o‘s” qishlog‘ining umumiy perimetri 76389 metr ekanligi, umumiy maydoni 10561,9 gektar;

“Ilonli” qishlog‘ining umumiy perimetri 85255 metr ekanligi, umumiy maydoni 13520,6 gektar;

“Ispanza” qishlog‘ining umumiy perimetri 48847 metr ekanligi, umumiy maydoni 2588,2 gektar;

“Jartepa” qishlog‘ining umumiy perimetri 63245 metr ekanligi, umumiy maydoni 4034,1 gektar;

“Mirzaqishloq” qishlog‘ining umumiy perimetri 57145 metr ekanligi, umumiy maydoni 3949,5 gektar;

“O‘ramas” qishlog‘ining umumiy perimetri 41255 metr ekanligi, umumiy maydoni 3340,8 gektar;

“Pochvon” qishlog‘ining umumiy perimetri 48809 metr ekanligi, umumiy maydoni 2642,9 gektar;

“Qoratepa” qishlog‘ining umumiy perimetri 94742 metr ekanligi, umumiy maydoni 29044,3 gektar;

“Yangiariq” qishlog‘ining umumiy perimetri 72610 metr ekanligi, umumiy maydoni 11063,8 gektar ekanligi aniqlandi.

Urgut tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Urgut shahri, shaharcha va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi

to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz yigirma beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi direktori R.Xotamovning Urgut tumani hududidagi Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi tomonidan Urgut tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Urgut shahar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan komissiya tarkibining 2023-yil 19-sentabrdagi 263-sonli yig‘ilish bayoni hamda tuman Adliya bo‘limining 2023-yil 12-oktabrdagi 4-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Urgut tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (D.Ochilov), “Urgut sadosi” gazetasi bosh muharriri (A.Ziyodov)larga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalari hamda matbuotda keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **X.Rashidov**

Xalq deputatlari Urgut tuman
Kengashining
2023-yil 13-oktabrdagi
VI-125-155-7-105-K/23-son qaroriga
1-ilova

Urgut tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida MA‘LUMOT

№	Shahar va shaharchalar hamda qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni *gektar*)
1	Bahrin qishlog‘i	38049	3694,3
2	Beshbuloq qishlog‘i	64716	10901,2
3	Buloqboshi qishlog‘i	67018	15903,2
4	G'o's qishlog‘i	76389	10561,9
5	Ilonli qishlog‘i	85255	13520,6
6	Ispanza qishlog‘i	48847	2588,2
7	Jartepa qishlog‘i	63245	4034,1
8	Mirzaqishloq qishlog‘i	57145	3949,5
9	O‘ramas qishlog‘i	41255	3340,8
10	Pochvon qishlog‘i	48809	2642,9
11	Qoratepa qishlog‘i	94742	29044,3
12	Yangiariq qishlog‘i	72610	11063,8
13	Urgut shahri	29036	1604,4
14	Pochvon shaharcha	16022	458,2
15	O‘ramas shaharcha	8267	185,4
16	Kenagas shaharcha	9868	221,4
17	Kamongaron shahrcha	13713	307,0
18	Jartepa shaharcha	19710	408,0
19	Ispanza shaharcha	11167	495,8
20	G‘o‘s shaharcha	10212	363,3
Tuman bo‘yicha jami:		**876075**	**115288,3**

Xalq deputatlari Urgut tuman
Kengashining
2023-yil 13-oktabrdagi
VI-125-155-7-105-K/23-son qaroriga
2-ilova

Urgut tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

2-ilova

Samarqand viloyati Urgut tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari
S X E M A S I

